

ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODIGA BIR NAZAR

Odinayev Abbosbek.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi.

Zafar Abdusamadov.

Ilmiy rahbar. Ingliz tili uchunchi fakulteti dekani.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Alisher Navoiy hayoti va ijodiga yangicha yondashuv bayon etilgan. So'z mulkinging sultoni Navoiyni ijodini o'rganish uni hayot yo'lini yoritishga qaratilgan. Alisher Navoiy Sharq adabiyotida muhim o'rin tutgan shaxs edi.

Kalit so'zlar: epik asarlar, mutafakkirlar, o'zbek adabiy tili, turkiy adabiyot, ilmiy asarlar.

KIRISH.

Alisher Navoiy buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri, o'zbek adabiy tilining asoschisidir. Alisher Navoiy nafaqat o'zbek, balki butun turkiy xalqlar adabiyoti, jahon xalqlari adabiyoti tarixidagi eng noyob hodisalar silsilasiga mansub bo'lgan buyuk shaxsdir. U qoldirgan merosning soni va hajmigagina emas, balki ularning mazmun va yuksak badiiyatiga ko'ra ham tengsiz adibdir. Navoiy adabiyotshunos sifatida o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga munosib xizmat qiladigan ko'plab ilmiy asarlar muallifidir. U yirik va hassos tilshunos olim hamdir. Shoir butun turkiy adabiyotda eng katta lirik va epik merosga ega qalamkash hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.



1991-yilda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, navolyshunoslikda ham yangi davr boshlandi. Chunki bu davrda milliy istiqlol g'oyasi talablari asosida xalo va mamlakat tarixi, qadriyatlari, boy ilmiy-adabiy merosiga xolisona va ilmiy asosda baho berish, uni ilk va ishonchli manbalarga tayanilgan holda o'rganishga keng yo'l ochildi. Bu esa Alisher Navoiy hayoti, faoliyati va merosini chuqur o'rganish va yoritishga yangi ufoqlarni ochib berdi. Shuning natijasida Alisher Navoiyning yigirma tomlik mukammal asarlar to'plamining nashri amalga oshirilmoqda, ilgari nashr qilinmagan "Munojo". "Stroj ul-muslimin", "Badoe" ul-bidoya", "Navodir un-alhoya" asarlari bosilib chiqdi. Shu yillarda Alisher Navoiy merosining kam o'rganilgan qirralari (masalan, tasavvuf muammolari) keng tekshirilib, bu sohada anchagina ilmiy va ilmiy- ommabop asarlar yaratildiki, bunda adabiyotshunoslardan N.Komilov, I.Haqqulov, R.Vohidov, S.Olimov, N.Jumaev, S.G'anieva, M.Mahiddinov, Sh.Sirojiddinov, D.Salohly va boshqalarning munosib hissalar bor. Mustaqillik davrida Toshkent va Navoly shaharlarida Alisher Navoiyga bag'ishlangan muhtasham yodgorlikla maydonga keldi. Hozirgi kunda - Alisher Navoiy hayoti va xususan, ko'pqimall merosini o'rganishda shoir va nostming badly mahorati, baduyati olamining ko'lam va mohiyatini kashf etish, ularni keng kitobxonlarga tushinarli tarzda sharh va talqin qilish hamda istiqlol ma'naviyatini shakllantirishdagi ahamiyatini belgilash asosiy yo'nalish bo'lib qolmoqda

Alisher Navoiyning hayot yo'll, faoliyati va merosi akademik Izzat Sultonning "Navoiyning qalb daftari (Toshkent, BAN, 1969) nomli kitobida shoirning o'z asarlaridagi ma'lumotlar hamda zamondoshlari qoldirgan ilk va ishonchli manbalar asosida ancha keng yoritilgan. Shundan kelib chiqib, bunda Alisher Navoiyning hayoti va faoliyati haqida qisqacha ma'lumot berish ma'qul ko'rindi.

TADQIQOT VA METODALOGIYA.

Alisher Navoiy 1441- yilning 9- fevralida Xuroson o'lkasining poytaxti Hirotda tug'ilgan. Bu shahar hozirda Afg'onistonning markaziy shaharlaridan biri hisoblanadi.

Navoiy bolalikdan ma'rifatli oila muhitida tarbiya topgan. Uning otasi G'iyosiddin Muhammad (uni „G'iyosiddin kichkina" ham der edilar) temuriylarga yaqin amaldorlardan bo'lib, o'z davrining obro'li va ma'rifatli kishilardan sanalgan. Onasi Qobul amirzodalaridan Shayx Abdusaid Changning qizi bo'lgan. Navoiy oilada uchinchi yoki to'rtinchi farzand bo'lib, maktabda bo'lajak sulton Husayn Boyqaro bilan birga o'qigan. U erta savod chiqargan. Navoiy juda kichik yoshlaridan she'r va musiqaga havas qo'yadi, olim-u shoirlar davrasida ulg'aygan. Kichik maktab yoshida fors shoiri Fariddin Atorning kattalar ham tushunishi qiyin bo'lgan „Mantiq ut-tayr" dostonini fors tilida o'qib ham uqib, yod olgan edi. 1447-yilda u oilasi bilan Iroqqa ko'chib ketadi. Ular 1451-yilda Hirotga qaytadi. 1453-yilda Alisherning otasi G'iyosiddin Muhammad vafot etadi. Otasidan ajralgan Navoiy Abdulqosim Bobur xizmatiga kiradi. Avval Sabzavorda, so'ng Mashhadga yashagan. She'rga mehr Navoiyning ijodga undadi. Bo'lajak shoir yetti-sakkiz yoshlaridan she'r mashq qila boshladi. U ikki tilda ijod qildi. O'zbekcha she'rlariga „Navoiy", forscha she'rlariga „Foniy" taxallusini qo'ydi. „Navoiy" - „navo", „kuy" so'zidan olingan, „Foniy" esa forscha „vaqtincha" ma'nolarini beradi. O'smirlik davrida Alisher o'qishda va yozishda tinim bilmas, she'r mutolaasidan charchamas edi. Navoiy „Muhokamat ul-lug'atayn" asarida o'zining yoshlik chog'ida mashhur o'zbek va fors shoirlari nazmidan 50 ming bayt (100 ming misra) she'rni yod bilganini yozadi. Shunday qilib, Navoiy 12 yoshlarida o'z she'rlari bilan zamonasining eng mashhur shoirlarini hayratga soldi. 1457-yilda Abdulqosim Bobur Mirzo vafot etdi va uning o'rnini Abusaid Mirzo egalladi. Navoiyning maktabdosh do'sti Husayn Boyqaro taxt uchun kurashga tushib ketdi. Navoiy esa Mashhad madrasasida o'qishni davom ettirdi. U 1460-yillarning ikkinchi yarmida Samarqandda yashaydi. 1469-yilda Hirot taxtiga Husayn Boyqaro chiqadi va Navoiyni o'z yoniga chaqiradi. Uni muhrdor qilib tayinlaydi. 1472-yildan vazirlik martabasiga ko'taradi, 1487-1488-yillarda Astrobodga hokimlik qiladi. Unga Husayn Boyqaro „Muqarrabi shohiy", ya'ni „Shohning eng yaqin kishisi" degan oliy martabani bergan edi. 1489-1493-yillar shoir uchun ayriliq, og'ir jidolik yillari bo'ldi. Do'stlari, ustozlaridan Sayyid Hasan Ardasher, Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Muhammad ketma-ket vafot etgan edi. Umrining so'nggi o'n yili mobaynida ham Navoiy juda ko'p badiiy, ilmiy, tarixiy asarlar yaratdi.



Alisher Navoiy 1503-yilning 3-yanvar kunida 60 yoshida Hirotda vafot etgan. Bobomiz qabri ham Hirotda shahrida. 1991-yili Toshkent shahridagi O'zbekiston Milliy bog'ida, 2017-yili esa Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti binolari oldiga shoirning haykallari o'rnatildi. Poytaxtimizning Navoiy ko'chasida ham uning haykali qad rostlab turibdi. Keyingi yillarda Tokio, Moskva va Boku shaharlaridan ulug' o'zbek shoir Alisher Navoiy haykallari bunyod etildi.

Alisher Navoiy bobomizning mustaqillik yillarida nashr etilgan yigirma jildlik mukammal asarlari to'plamiga kirgan she'r-u dostonlari, ilmiy va tarixiy asarlari, xotira va yozishmalari ruhiy dunyomizni nihoyatda boyitadigan, aql-tafakkurimizni charxlaydigan, yurtimiz tarixi va uning buyuk siymolari haqida juda qimmatli ma'lumotlar beradigan asarlardir. Adib she'riyatining mavzu qamrovi nihoyatda keng. Ularda falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy-talimiy fikr va mulohazalar yuksak badiiylik bilan ifoda etilgan. Navoiy she'riyati bilan muloqot kitobxonlarning ichki olami, ma'naviyatining boyishiga katta hissa qo'shadi. Alisher Navoiy o'zbek adabiyoti va madaniyati tarixi uchun noyob manba sifatida katta ahamiyatga ega „Majolis un-nafois“ asarida 459 ta shoir, yozuvchi, ijodkor haqidagi ma'lumotlarni jamlagan. 1472-1476-yillarda „Badoye ul-bidoya“ („Badiiylik ibtidosi“), 1476-1483-yillarda „Navodir un-nihoya“ („Tuganmas nodirliklar“) nomlari bilan ikki devon tuzdi. 1483-1485-yillarda shoirning eng buyuk asari - besh doston dan iborat „Xamsa“ asari yaratildi. Navoiy 1485-1488-yillarda „Tarixi anbiyo va hukamo“ („Payg'ambarlar va hakimlar tarixi“) kitobini yozadi. 1488-yilda „Tarixi muluki ajam“ („Ajam shohlari tarixi“) yozdi. Navoiy aruz ilmiga bag'ishlab „Mezon ul-avzon“ degan asar ham yozadi. U muammo haqida „Mufradot“ degan bir asar yozgan. Navoiyning diniy mavzularda qalam tebratgani ham barchaga yaxshi ma'lum. „Siroj ul-muslimin“ („Musulmonlik chirog'i“), „Arba'in“ („Qirq hadis“), „Munojot“ („Tavba-tazarru“) shular jumlasidandir. Uning „Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat“ („Ulug'lik xushbo'yliklarini taratuvchi muhabbat shabbodalari“) asari tasavvuf tarixiga bag'ishlangan. Navoiy - tarixiy memuar ruhidagi qator asarlarni ham muallifidir. Bu silsilaga „Vaqfiya“, „Xamsat ul-mutahayyirin“, „Holoti Sayyid Hasan Ardasher“, „Holoti Pahlavon Muhammad asarlari kiradi. „Nazm ul-javohir“ („Gavharlar tizimasi“) asari,

asosan, tasavvuf gʻoyolari targʻibiga bag'ishlangan. 1491/92-1498/99-yillar mobaynida esa barcha lirik she'rlarini to'rt devonga taqsimlab, „Xazoyin ul-maoniy“ („Ma'nolar xazinalari“) nomli yirik to'plamini tuzdi. Olim „Sabʻat abhur“ („Yetti dengiz“) nomli arab tilining izohli lug'atini ham tuzgan. Fors tilining mukammal bilgan va unda barakali ijod qilgan shoir bu tilda yozgan she'rlarini to'plab „Devoni Foniyy“ na tuzdi. 1498-yilda yaratilgan „Muhokamat ul-lugʻatayn“ („Ikki til muhokamasi“) asari tilshunosligimiz xazinasidagi bebaho gavhardir. Boshqalar bilan olib borgan yozishmalari - xatlarini to'plab, 1499-yilda „Munshaot“ („Maktublar“) tuzdi. Umr bo'yi xayolini band etgan „Lison ut-tayr“ („Qush tili“)ni qogʻozga tushirdi. 1500-yilda buyuk mutafakkirning yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlarini o'zida mujassam etgan „Mahbub ul-qulub“ („Ko'ngillarning sevgani“) asari yaratildi. Bu Navoiyning so'nggi asari edi. Navoiy lirikasida odam va olam, hayot va uning gʻozalliklari madh etiladi. Navoiy ruboiylari tuygʻular va fikrlarning yetukligi, tabiiyligi, favqulodda go'zal va ta'sirchanligi, so'z ma'nolarining kamalakdek tovlanishi bilan ajralib turadi. Shoir o'zbek tilida 500 ga yaqin ruboiy bitgan. U barcha tuyuqlarini bir yerga jamlab, „Badoye ul-vasat devoni tarkibiga kiritgan. Devondagi tuyuqlarning umumiy soni - 13 ta. Shoir alohida mustaqil asar sifatida bitilgan barcha fardlarini ham jamlab, „Favoyid ul-kibar“ devoni tarkibiga kiritgan. Unda fardlarning umumiy soni - 86 ta. Navoiyning vatan va vatanparvarlik haqidagi she'rlari faqat o'sha davr kishisining kechinmalari sifatidagina emas, balki bugungi avlod, xususan, biz yoshlar uchun ham ibrat va namuna maktabi bo'lib xizmat qilmoqda.

Barcha asarlarning orasida besh ulugʻvor dostonni o'z ichiga olgan „Xamsa“, ayniqsa, alohida e'tiborga sazovor. Navoiyning „Xamsa“si yaxlit asardir. Buyuk shoir unda zamonasining barcha dolzarb masalalarini qalamga oldi. „Xamsa“ - Navoiy dahosining mahsuli, ayni paytda, millatimiz tafakkur ko'lamini hamda ma'naviy qudratining timsolidir. Alisher Navoiyning „Xamsa“si boshqalardan farqli ravishda ona tilimiz - turkiy tilda yozilgan. Qisqa bir muddat - ikki yil (1483-1485) davomida 51 misradan ortiq besh dostonni yozib tugalladi. U 1483-yilda „Hayrat ul-abror“ falsafiy-ta'limiy dostonini, 1484-yilda uch asarni: „Farhod va Shirin“, „Layli va Majnun“ hamda „Sabʻai sayyor“ ishqiy-sarguzasht dostonlarini, 1485-yili esa „Saddi Iskandariy“

qahramonlik dostonini yaratdi . Alisher Navoiyning „Xamsa" asariga kirgan birinchi doston „Hayrat ul-abror", ya'ni „Yaxshi kishilarning hayratlanishi" deb nomlanadi. Mazkur doston 63 bob, 3988 bayt, 20 ta maqoladan tashkil topgan. „Hayrat ul-abror"da shoir umr, uning mazmuni, tabiat, jamiyat va inson munosabatlariga doir savollarini qo'yadi, keyingi dostonlarda muayyan taqdirlar, voqealar misolida ularga javob berishga harakat qiladi.„Xamsa"ning ikkinchi dostoni „Farhod va Shirin" ishqiy-sarguzasht mavzusidadir. Hajmi - 5782 bayt, 54 bob. Muallif bu asarni „shavq dostoni" deb ataydi. Sababi, unda ishq kuylanadi, ishq talqin qilinadi, ishq ulug'lanadi. „Xamsa"ni uchinchi dostoni „Layli va Majnun" dostoni ishqiy-sarguzasht mavzusidadir.Hajmi - 3623 bayt, 38 bobdan iborat. To'rtinchi doston bu - „Sab' ai Sayyor" ishqiy-sarguzasht mavzusidadir.Doston hajmi 5009 bayt 38 bobdan tashkil topgan.„Saddi Iskandariy" „Xamsa" dostonlarining yakunlovchisidir. U hajmiga ko'ra eng yirik dostonidir. Doston hajmi - 7215 bayt. U 89 bobdan iborat. Shundan 1-14-boblar kirishni, 15-87-boblar asosiy qismni, 88-89-boblar xotima qismini tashkil qiladi.

"Sevungil, ey ko'ngul, oxirki jisming ichra jon keldi,

Quvon, ey joni mahzunkim, hayoti jovidon keldi.

Safardin ul pariy yetti, meni mahzunni shod etti,

Ko'ngildan eski g'am ketti, tan ichra yangi jon keldi.

Xirad, yig' bu masofingni tahammul, qo'yish gazofingni,

Vara', tark ayla lofingniki, oshubi jahon keldi

Demakim andin ayrildim, ko'ngilni hamrahi qildim,

Bugun keldi ko'ngil, bildimki, ul nomehribon keldi.

Keliptur yoshurun ul shah, meni majnun eman ogah,

XULOSA

Uning asarlari nafaqat yurtimizda, balki dunyoning har bir burchagida har qanday inson tomonidan sevib o'qiladi. Navoiyning asarlari jahonning juda ko'plab tillariga tarjima qilingan. Navoiy asarlari shunchaki o'qilibgina qolmay, juda ko'p masalarga xizmat qiladi. Misol uchun uning asarlari axloqiy-tarbiyaviy masalarda juda katta ahamiyatiga ega. Bundan tashqari, Navoiy juda ko'plab tarixiy asarlar bitganligi bois uning asarlari orqali o'sha davr tarixiga oid qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Uning asarlari juda ko'p fanlar, sohalarda ham asos, qimmatli manbaa bo'lib xizmat qiladi.

Navoiy asarlarini asrab-avaylab, undan zarur saboqlarni olib, har bir sohada qimmatbaho manbaa sifatida foydalanishimiz va ularni kelajak avlodlarimizga ham yetkazishimiz zarur. [1.73] Zerokim, jadal sur'atlarda o'sib borayotgan salohiyatimizni e'tiqod va iymonda mustahkam bo'lgan darg'alarimiz Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi shaxslar hayoti va ijodini targ'iboti orqali amalga oshirsak, kelgusi avlod tarbiyasi va millat ravnaqiga ulkan xissa qo'shgan bo'lar edik. Hozirgi qilishimiz kerak bo'lgan mashaqqatli mehnat albatta kelgusida ijobiy meva berishi aniq va muqarrardir.

Adabiyotlar

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyori tarixi. -Toshkent: Yangi asr, 2006.
2. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoly: manbalarning qiyosiy-tipologik va tekstologik odgic. -T: Akademnashr, 2011.
3. B. Vallxo'jaev, Qabek adabiyori tarixi. I kitob.-Sam.: SamDU nashri, 2002.
4. Alisher Navoiy, Vaga MAT. 14om 7: Fan, 1998
5. Alisher Navaly, set ul-mutahayyirin. MAT. 15-com. -T.: Fan, 1999.
6. Xondamir. Makorim ul-axloq. -T.: BAN, 1968
7. Izzat Sulton, Novolyning qath defiori. -T.: BAN, 1969,



8. V. Abdullaev. Novoly Samarqandda. -T.: BAN, 1968.

9. B. Valles 'jaev. Navoiyning qadamjolari "Muloqo", 1991-yil No 1-2

